SOBIR O‘NAR NASRIY MEROSINING AHAMIYATI

Qudratova Mahliyo Mamasharif qizi
Tadqiqotchi
abrorqudratov@98gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy adabiyotshunoslikning yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Sobir O‘nar nasriy merosining shakllanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Adibning asarlaridagi badiiy so‘z san`atining adabiy ta`limiga qo‘shgan hissalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Til, so‘z san`ati, adabiyot, ruhiy holat, axloqiy tanlov, obraz, ruhiyat, shakl, dramatizm.

So‘z san’atining mohiyati shundaki, u insonni o‘ylantiradi, quvontiradi, qayg‘uga soladi, o‘tmish va kelajak haqida mushohada yuritishga undaydi. Adabiyot asarlarida faqat syujet yoki voqelik emas, balki ularni qanday tasvirlash, qanday so‘zlar orqali ifodalash ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan adabiyot boshqa fan va san’at turlaridan ajralib turadi. Masalan, tarix voqeani faktlar orqali, falsafa esa fikrlar orqali ifodalasa, adabiyot buni obrazlar, ramzlar va badiiy tasvirlar orqali beradi. Demak, adabiyotda go‘zallikni yaratish – bu so‘zlar orqali san’at asarini vujudga keltirishdir. Adabiy tanqidchi Qozoqboy Yo‘ldoshevning quyidagi gaplari ham fikrimiz tasdig‘idir: “Adabiyot – abadiyatga da’vogar. Adib betizgin vaqtni tizginlashga urinadigan zot. U tarixchidan farq qilaroq, zamon haqida axborot, ma’lumot bermaydi. Bilaks, vaqtni, odam umrining biror qismini hissiyot-u sezimlari bilan tasvirga muhrlab, to‘xtatib qo‘yadi”. [1] Adabiyotning azaliy namunalaridan

tortib zamonaviy badiiy asarlargacha bo‘lgan asarlarda so‘zning badiiy kuchi va san’atkorona ishlatilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Alisher Navoiy, Atoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Mirtemir kabi ijodkorlar o‘z asarlarida so‘zning san’atga aylanishiga erishgan ijodkorlardir. Ularning asarlarida har bir jumla nafaqat ma’no, balki musiqiylik, ohangdorlik, badiiy zavq manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Sobir O‘nar (to‘liq ismi-sharifi: O‘narov Sobir Hamzayevich) - o‘zbek adabiyotining XX–XXI asrlar oralig‘idagi fidoyi va samimiy so‘z san’atkori, yozuvchi, muharrir, tarjimon va publitsist sifatida o‘zining betakror ijodi bilan milliy adabiyotimizni boyitgan chinakam ijodkor edi. U 1964-yil 25-fevralda Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumani, Quvkalla qishlog‘ida dunyoga keldi. Tabiat bag‘rida ulg‘aygan bu bola kelajakda inson va jamiyat, orzu va iztirob, haqiqat va qalb ohanglarini yurakdan his etib, yozishga, ifodalashga, qalamlashga oshno bo‘ldi. Maktabni tamomlab, Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetida tahsil oldi. 1986-yilda oliygohni tugatgan yosh yigit darrov matbuot olamiga sho‘ng‘idi. Bu sho‘ng‘ish oddiy kasbiy faoliyat emas, balki hayotini adabiyotga, so‘zga, jamiyatga bag‘ishlashning ilk qadami edi [1].

Sobir O‘nar ijodining ilk bosqichi 1980-yillarning oxiri va 1990-yillar boshlarida boshlangan bo‘lib, bu davr uning ijodiy izlanish, shakllanish va adabiy sahnaga kirib kelish jarayoni bo‘lgan. Yozuvchining dastlabki hikoya va esselari matbuot sahifalarida paydo bo‘la boshladi. Bu asarlar ko‘proq insoniylik, halollik, e’tiqod, muhabbat kabi umuminsoniy qadriyatlarni yoritishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yozuvchi bu mavzularni sodda, lekin obrazli va hayotiy tarzda bayon qilar edi. Uning ilk hikoyalaridan boshlab o‘quvchi o‘ziga tanish ruhiy holatlar, axloqiy tanlovlar, turmushdagi oddiy, ammo muhim tafsilotlarni his qilgan. Bu davr ijodida hikoya janri yetakchi bo‘lib, unda real hayot manzaralari, kundalik tashvishlar orqali katta ijtimoiy va axloqiy fikrlar ilgari surilgan. Dastlabki asarlarining o‘zidayoq u adabiy tanqidning e’tiboriga tushdi, sababi o‘ziga xos tilda, badiiy tahlil va falsafiy yondashuvda yozar, o‘quvchini oddiy gaplar ortidagi chuqur ma’nolarni anglashga majbur qilardi.

Ijodining keyingi bosqichi – 1990-yillarning ikkinchi yarmi va 2000-yillar davomida yozuvchi badiiy kamolotga erishadi. Bu bosqichda u insonning ichki olamiga chuqur kirib boradi, ruhiy-ma’naviy jarayonlarni falsafiy tahlillar bilan boyitadi. Bu asarlar faqat bir inson hayoti yoki hodisasi haqida emas, balki jamiyatdagi umumiy ruhiy muhit, ma’naviy qashshoqlik, qadriyatlar tanazzuli, “mohiyat” va “shakl” orasidagi nomuvofiqlik kabi murakkab masalalarni badiiy tilda ifoda etishga qaratilgan. Sobir O‘nar uchun nasr – bu jamiyatni o‘rganish vositasi, insonning ruhiy iqlimini tahlil qilish maydoni edi. Uning qahramonlari tashqi harakatdan ko‘ra ichki iztirob, o‘y-mulohazaga berilgan odamlar bo‘lib, ular orqali yozuvchi inson qalbidagi haqiqat izlanishini yoritadi. Shubilan birga, bu davrda uning yozuvchilik pozitsiyasi yanada aniqlandi – u ijtimoiy tanqidchi emas, ma’naviy ogohlikka da’vat etuvchi ijodkor sifatida shakllandi.

Sobir O‘nar o‘zining nasriy merosida voqeani emas, voqealikni, odamni emas, odamzodiylikni, gapni emas, ma’noni yozdi. Ana shu xususiyatlari uni zamonaviy o‘zbek adabiyotining teran, mulohazali, yurak bilan fikr qiladigan yozuvchilari qatoriga olib chiqdi.

Ijodining so‘nggi yillari – 2000-yillar oxiri va 2010–2020-yillarda esa Sobir O‘nar o‘zining yetuk badiiy-falsafiy asarlarini yaratadi. Bu davrda u hikoya, qissa bilan birga esse va publitsistik asarlarga ham murojaat qiladi. Uning asarlarida millat, tarix, zamon haqida chuqur falsafiy mushohadalar, ziyolilarning ijtimoiy mas’uliyati, vijdon va imon, hayot va o‘lim, sinov va najot kabi mavzular markazga chiqadi. “Ko‘zgudagi aks”, “Jasorat”, “Najot”, “Xat” kabi asarlarida yozuvchi ijtimoiy muammolarga murojaat qilar ekan, ularni siyosiy nuqtai nazardan emas, balki axloqiy-ruhoniy mezonlar orqali yoritadi. Yozuvchining tili yanada tiyin-tiyiq, obrazlari chuqur ramziy va hayotiy bo‘ladi. U matn orqali emas, ruh orqali

gapiradi; voqelikni emas, voqelik ortidagi mohiyatni ochadi. Aynan shu xususiyatlar Sobir O‘narning nasrini boshqalarnikidan ajratib turadi. Unga ko‘ra, yozuvchi jamiyatga faqat oynani tutmasligi, balki haqiqatni anglashga yordam beradigan ko‘zgu yasashi kerak.

U 1986-yildan boshlab uzoq yillar davomida „Yoshlik“ jurnalida ishlab, o‘zining jurnalistlik va muharrirlik mahoratini namoyon qildi. Avval muharrir, so‘ng bo‘lim boshlig‘i, bosh muharrir o‘rinbosari, keyinchalik esa jurnalning bosh muharriri lavozimlarida faoliyat yuritdi. Yillar davomida „Yoshlik“ sahifalarida bosilgan ko‘plab adabiy, ma’naviy, dolzarb maqola va asarlar ortida Sobir O‘narning ziyrak nigohi, mehrli qalbi, halol muharrirlik mas’uliyati turardi. U nafaqat o‘z ijodi bilan, balki yuzlab yosh qalamkashlar, iste’dodlar yo‘lini yoritgan, ularga ishonch bilan yo‘l ochgan ustoz sifatida ham esda qolgan.

2015-yildan hayotining oxirigacha “Kuch adolatda” gazetasida mas’ul kotib, “G‘afur G‘ulom” va “Yoshlar” nashriyotlarida muharrir, Yozuvchilar uyushmasining “Nasr” bo‘limida faoliyat yuritdi. Bu lavozimlar oddiy ish joyi emasdi - ular adabiyotning buguni va ertangi kunini belgilovchi ijodiy muhitning yuragi edi. Sobir O‘nar bu muhitda nafaqat ishtirokchi, balki yo‘naltiruvchi, ilhom beruvchi, yangi avlod qalamkashlarini qo‘llab-quvvatlovchi ustoz sifatida tanildi. Sobir O‘nar ijodga juda erta, talabalik yillaridayoq kirib keldi. 1986-yilda “Yoshlik” jurnalida ilk hikoyalari chop etildi va bu kichik qadam uning butun hayot yo‘lini belgilab berdi. So‘zga mehr, qalbga sezgirlik va hayotga samimiy nazar uning ijodining asosiy tamoyiliga aylandi.

1989-yilda e’lon qilingan dastlabki kitobi - “Orzuga to‘la qishloq” adabiy olamda iliq kutib olindi. Bu nom bejiz tanlanmagan edi: unda qishloq hayotining o‘ziga xos ranglari, odamlarning orzu-umidlari, kelajakka intilishi, beg‘ubor istaklari mujassam edi. Har bir hikoya hayotning o‘zi kabi tabiiy, inson qalbi kabi murakkab va samimiy edi. Keyingi yillarda dunyo yuzini ko‘rgan “Ovloq adirlar bag‘rida”, “Chashma”, “Inqilob kechasi”, “Dunyo shundoq tururmi?”, “Bibisora”, “Farishta”, “Kunsuluvning sirli xatlari” kabi qissa va hikoyalar ham ana shu ruhning davomchisi bo‘ldi. U qahramonlarini ulug‘lash yoki kamsitishdan yiroq edi - ular hayotda qanday bo‘lsa, asarda ham shunday jonli, tabiiy, kamchiliklari va fazilatlari bilan birga tasvirlanardi. Ayniqsa, “Dunyo shundoq tururmi?” va “Bibisora” qissalari adabiy jamoatchilikda katta e’tibor uyg‘otdi. Bu asarlar haqida atoqli adiblar - Odil Yoqubov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, shuningdek, taniqli adabiyotshunos olimlar M.Qo‘shjonov, B.Nazarov, T.Mirzayevlar iliq fikr bildirdi. Bu esa Sobir O‘narning adabiyotdagi mavqeini mustahkamlash bilan birga, uning g‘oyaviy-estetik salohiyatini ham tasdiqladi.

Sobir O‘nar uchun yozish - shunchaki kasb emas, qalbning buyuk ehtiyoji edi. U so‘z orqali insonning ichki olamiga kirar, dardini, quvonchini, orzularini, iztiroblarini tinglar va ularga badiiy shakl berar edi. Uning nasrida sun’iylik, bezakli so‘zlar ortidagi bo‘shlik yo‘q - u hayotning o‘zi kabi samimiy, odamlar kabi haqiqiy. Bugun Sobir O‘narni eslaganda, ko‘z oldimizda qalamini o‘tkir, qalbini esa keng tutgan, adabiyotga fidoyi inson obrazi jonlanadi. U o‘zbek nasrida sof insoniylik, pokiza tuyg‘u va samimiy badiiyat timsoli bo‘lib qoldi. Uning asarlari esa yangi avlodni ham hayotga, ezgulikka, so‘zga muhabbat bilan qarashga chorlaydi.

Sobir O‘nar - so‘zga sadoqat bilan yashagan, inson ruhiyatini noziklik bilan tasvirlagan, samimiylik va oriyat bayrog‘ini baland tutgan adibdir. Uning asarlari bugun ham o‘quvchini o‘ziga tortadi, qalblarga yetib boradi, yuraklarni larzaga soladi. U ijodda insonparvarlik, haqiqat va mehr-muhabbatni ulug‘lagan, so‘z orqali yuksak badiiyat yaratgan ijodkor sifatida qalblarda yashaydi. Asarlari esa o‘zbek adabiyoti xazinasida mangu qoladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, yozuvchining adabiyot sahnasiga qo‘ygan dastlabki qadamlarini belgilagan asarlar sifatida “Kunsuluvning sirli xatlari” va “Qish kunlaridan biri”

hikoyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ikki hikoya 1986-yilning avgust oyida “Yoshlik” jurnalining 8-sonida e’lon qilinib, o‘sha davr o‘quvchilari orasida katta qiziqish uyg‘otgan edi [2]. Asarlar mazmunida muallifning o‘ziga xos kuzatuvchanligi, oddiy hayot manzaralarini chuqur ma’naviy qatlamlar bilan uyg‘unlashtira olish mahorati, inson ruhiy olamiga kirib borishdagi nozikligi yaqqol seziladi. “Kunsuluvning sirli xatlari” hikoyasi orqali yozuvchi o‘zbek qishlog‘i hayotidagi samimiy tuyg‘ular, insoniy orzu va armonlarni ifodalashga intilgan. Asardan olingan quyidagi parcha so‘zimiz isbota bo‘la oladi: “Bu voqeani u unutgani yo‘q. Bir kun kelib o‘sha qizni yana uchratganday bo‘ldi. Biroq buning nomi bo‘lakcha – Kunsuluv. Tag‘in uni “amma” deb emas, “yanga” deb chaqiradi. Eng chatog‘i – yangasi uning ismini aytib chaqira olmaydi. Nima emish “Hushtakchi” emish. Yangasi shunday deb chaqirsa o‘zini u ulg‘ayib qolgandek his qiladi va qo‘llarini musht qilib, ikki barmog‘ini og‘ziga tiqadi-da, bulbulcha bo‘lib bir sayraydiki asti qo‘yavering”[2]. Ushbu voqea o‘zbek qishloq hayotiga xos samimiylik, o‘zaro yaqin munosabatlar va milliy qadriyatlarning o‘zida mujassam bo‘lgan bir lavha sifatida talqin etilishi mumkin. Qahramon bir vaqtlar uchratgan qizni oradan ancha vaqt o‘tgach, yana ko‘rganday bo‘ladi. Ammo bu safar uning holati boshqacha – qiz endi boshqa nom bilan ataladi: Kunsuluv. Qolaversa, qahramon unga o‘xshagan qizni ilgari “amma” deb chaqirgan bo‘lsa, endi bu qizga “yanga” deb murojaat qiladi. Bu o‘zgarish qishloq muhitida qarindoshlik va ijtimoiy munosabatlar tizimining qay darajada nozik va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi.

Kunsuluv bor dardini xatlariga to‘kar edi. Uning qo‘llari qaltirardi. Har safar qog‘oz ustiga qalam tekkanda, ichidagi butun bir olam silkinib ketardi. Harflar ketma-ket yasalardi, ammo so‘zlar juda og‘ir tushardi. Go‘yo yuragidan uzib olib, qog‘ozga qo‘yayotgandek. Xatlarida u hech qachon “Men seni sevaman” degan oddiy jumlani yozmagan. Ammo har bir satr, har bir jumla, hatto har bir tinish belgisi o‘sha so‘zning o‘rnini bosardi. U shunday yozardiki, oq qog‘ozdagi qora harflar erining qo‘liga iliqlik berardi. “Qoshlari qop-qora ekan… nahot umr bo‘yi izlaganim shu bo‘lsa…” [2] - bu jumla qisqa bo‘lishiga qaramay, unda inson ruhiyatidagi keskin burilish nuqtasi mujassam. Birinchi jumla tashqi belgini qayd etadi - qora qosh obrazning diqqatga sazovor jihati sifatida tilga olinadi. Ikkinchi jumla esa ichki kechinmani ochadi: uzoq izlangan va tasavvurda yaratilgan timsolning kutilmagan lahzada topilgandek tuyulishi. Ushbu ifoda shaxsning hissiy holatini ochiq-oydin ko‘rsatadi - unda hayrat, ichki uyg‘onish va quvonch uyg‘unlashgan. Shu tariqa, oddiy ko‘ringan tasvir ortida murakkab ruhiy jarayon va hayotiy izlanishlar manzarasi yotadi. Kunsuluv erini qattiq sevardi. Buni hech kimga aytmasdi, hattoki unga ham. Ammo bu sevgi aytilmagan bo‘lsa-da, yashirin bo‘lsa-da, ko‘zlarida, mayin tabassumida, unga suzgan choyida, kechasi uxlamay uning kiyimlarini tikayotganida sezilardi. U sevgisini so‘z bilan emas, hayotning har bir mayda detali bilan ifodalay olardi. Ammo erining bilishini xohlasa-da, tiliga keltirib aytishning uddasidan chiqolmasdi. U yana bir maktubida: “Ming qatla shukr, Xolnazarim, menikisan, men ham senikiman! O‘lsak o‘ligimiz ortiq ulardan…”[2]. Bu jumla bir butun holda shunday ma’noni beradi: Ming marta shukr, ey Xolnazarim, sen meniki, men esa senikiman. Bizning bir-birimizga bo‘lgan sadoqatimiz shunchalik kuchli va yuksakki, hatto o‘lganda ham bizning nomimiz, ruhimiz va qadrimiz boshqalarnikidan ortiq bo‘ladi. Bu yerda muhabbat, minnatdorlik va faxr uyg‘unlashgan. Aytilayotgan so‘zlar sevgining o‘zaro ekanini va bu sevgi hayotdan ham, o‘limdan ham ustun turishini ifodalaydi.

Yuqoridagi ikki hikoya ham o‘ziga xos tarzda qishloq hayotining tabiiy, hayotiy manzaralarini yoritadi. Ularning markazida – oddiy insonlar, qishloq odamlari va ularning samimiy munosabatlari turadi. Muallif voqealarni murakkab syujetlar, zo‘rma-zo‘raki dramatizmsiz, balki hayotning o‘zi qanday bo‘lsa, shunday holatda tasvirlaydi.

Qahramonlarning ichki kechinmalari, orzu-armonlari, dard va quvonchlari o‘zlarining sodda, beg‘ubor tili bilan ifodalanadi.

Muallif tilidagi samimiylik, tasvirlardagi tabiiylik o‘quvchini voqealar ichiga olib kiradi, ularni qahramonlar bilan birga quvonishga va birga iztirob chekishga undaydi. Natijada, ikki hikoya ham qishloq kishilarining sof qalbini, milliy qadriyatlarni va qadrli insoniy tuyg‘ularni asrab qolish zarurligini eslatib, iliqlik va o‘ziga xos ruhiy taskin baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
2. “Ёшлик” журнали. – Тошкент: Ёш гвардия нашриёти, 1986. – № 8.